

OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLANISHDA GENDER XUSUSIYATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-488-491>

Magdiyeva Zamira Yo‘ldoshxonovna

Pedagogik ta’lim va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

"Renessans" universiteti, O‘zbekiston Respublikasi

magdiyevazamira@bk.ru

orcid:0009-0005-5843-2214

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda yosh avlodning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy omillari va gender xususiyatlarining o‘ziga xosligi haqidagi o‘zbek hamda jahon psixologiyasidagi qarashlarni shu bilan birga bugungi kundagi yigit va qizlarni nikoh va oilaga tayyorlash masalasi yuzasidan ular shakllanayotgan xususiyatlar haqida yoritib bordik.

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy sharoit (huquqiy, iqtisodiy, ta’limiy) gender tenglikni oshirishga, oilaviy munosabatlarning barqarorligi, an’ana, urf-odat, nizolar, xulq-atvor modeli*

Аннотация: В нашей статье мы осветили взгляды в узбекской и мировой психологии о социальных факторах готовности к семейным отношениям и особенностях гендерных особенностей, а также об особенностях, формирующихся у современных юношей и девушек по вопросу подготовки к браку и семье.

Ключевые слова: Социальные условия (правовые, экономические, образовательные) способствуют повышению гендерного равенства, стабильности семейных отношений, традиции, обычаи, конфликты, модели поведения

Annotation: In our article, we covered the views in Uzbek and world psychology on the social factors of readiness for family relations and the peculiarities of gender characteristics, as well as the peculiarities that are formed in modern young men and women regarding the issue of preparation for marriage and family.

Keywords: Social conditions (legal, economic, educational), increasing gender equality, stability of family relations, traditions, customs, conflicts, behavioral model

Nikoh bu er-xotinlik ya’ni, ikki inson o‘rtasidagi shaxsiy munosabatdir. U jamiyatda qabul qilingan axloqiy ko‘rsatmalar bilan tartibga solinadi. Nikoh tuzilganidan so‘ng yangi oila tuzilganligi haqida gapirish mumkin. Oila qurilgandan so‘ng er-xotinning bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlari paydo bo‘ladi, shuning uchun ular ma’lum bir xulq-atvor modelini qabul qilishlari kerak. Oilaga tayyorlikning ijtimoiy, psixologik tamonlarini ko‘plab olimlar tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

V. Karimova oilaviy nizolar va oilaviy munosabatlarda ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganadi. U oiladagi yoshlar va juftlar o‘rtasidagi gender rollar munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qildi. Uning aytishicha, oiladagi ijtimoiy sharoitlar, gender rollar va psixologik jarayonlar oilaviy nizolar,

tushunmovchilik hamda juftlararo munosabat sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1,2].

U. Saribayeva o'zbek oilasida er xotinlarning gender tenglik haqidagi tasavvurlari va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rgandi. Muallif oiladagi juftlarning gender bo'yicha o'zaro qarashlarini va bu qarashlarning oila barqarorligiga ta'sirini empiric jihatdan tahlil qiladi. Uning fikricha yoshlardagi nikoh haqidagi gender tasavvurlari nafaqat ijtimoiy sharoit, balki shaxslarning shaxsiy psixologik tajribasi va qadriyat tizimi orqali shakllanadi hamda oilaviy munosabat sifatiga ta'sir ko'rsatadi [3].

O.E. Eshmuradov takidlashiga ko'ra, oilaviy rollar va ularning ijtimoiy ustanovkalar — yondoshuvlar, qadriyatlar va normalar orqali shakllanishini ko'rsatadi. Muallif ijtimoiy psixologik ustanovkalar oilaviy munosabatlar, rollar taqsimoti va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ustuvor rol o'ynashini qayd etadi [3].

Xorij olimlarining tadqiqotlarida ham oila va nikoh masalari ko'p o'rganildi. L.B. Shteynderning fikricha, shaxsning nikohga tayyorligi ko'nikmalarning butun bir majmuasini rivojlantirishdan iborat, ya'ni: kommunikativ, jinsiy, fiziologik, axloqiy, shuningdek, nizolardan chiqish yo'lini topish va yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi [6].

S.V. Joludevaning tadqiqoti ham shaxsning nikohga tayyorligi masalalariga bag'ishlangan. Uning ta'kidlashicha, turmush qurishga tayyorlik juftlikdagi o'z rolini tushunish va ota-ona sifatidagi mas'uliyatni qabul qilish bilan belgilanadi [8].

V.P. Kravets o'z tadqiqotlarida hozirgi vaqtda shaxsni (yosh va yetuk yoshdagi) nikohga tayyorlash sohasida maxsus psixologik dastur yo'qligini qayd etadi. Bu esa, o'z navbatida, to'liq bo'lmagan oilalar sonining ko'payishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi [12].

Shaxsning nikohga tayyorligi masalasi bilan I.A. Erina o'z ishlarida batafsil shug'ullangan. U shaxsning nikoh-oila munosabatlariga tayyorligi uchun quyidagi shartlar qatorini ajratib ko'rsatgan.

- Ijtimoiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi: hamkorlarda ta'limning mavjudligi (ideali maktab darajasi bilan cheklanmagan holda) va mehnat faoliyatini olib borish.

- Psixologik shartlarga quyidagilar kiradi: hamkorlarda ma'lum axloqiy me'yorlar, xulq-atvor madaniyati va jinsiy munosabatlar madaniyatining mavjudligi.

- Iqtisodiy-maishiy shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi: hamkorlarning moliyaviy mustaqilligi, o'z uy-joyiga ega bo'lishi va oila a'zolarini asosiy moddiy ne'matlar bilan ta'minlash imkoniyati.

- Huquqiy shartlarga quyidagilar kiradi: hamkorning o'z fuqarolik va oilaviy huquqlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi.

- Fiziologik sharoitlarga quyidagilar kiradi: hamkorning jismoniy salomatligi [18, 15-bet].

V. Dubrovinaning ta’kidlashicha, shaxsning axloqiy qiyofasini va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish bilan bir qatorda, o’g’il va qiz bolalarga xos bo’lgan ehtiyojlar, motivlar, qadriyat yo’nalishlari, boshqa jins vakillariga bo’lgan munosabatlar va ushbu tuzilmalarga mos keladigan xulq-atvor shakllarini o’z ichiga oladi. Yoshlarning ma’lum bir jins vakili sifatida o’zi haqidagi tasavvurlarining o’ziga xos tizimini shakllantirishni ham ta’minlash kerak. U oilaviy hayotga tayyorgarlik shartlaridan biri sifatida maskulinlik-femininlik to’g’risidagi tasavvurlarning shakllanishini o’rganish muhurligini takidlati [18-24bet].

Ammo shaxsning nikohga tayyorligining psixologik xususiyatlarini gender jihatdan o’rganish bo’yicha zamonaviy tadqiqotlarning aksariyati muayyan mamlakat, jamiyat yoki ijtimoiy-madaniy kontekstda erkaklar va ayollar holati va psixologiyasini o’rganish va tahlil qilish orqali “tavsifiy” xarakterga ega. Ushbu tadqiqotlarda erkaklar va ayollar turmush tarzi kabi turlicha, individual va madaniy bog’liq ekanligi e’tirof etiladi.

Ayol respondentlarda oilaviy munosabatlarga tayyorlik ko’proq emotsional barqarorlik, empatiya, munosabatlarni saqlab qolishga intilish hamda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik orqali ifodalangan bo’lsa, erkaklarda ushbu tayyorgarlik mas’uliyat, mustaqillik, qaror qabul qilishga tayyorlik va ijtimoiy rollarni bajarishga yo’naltirilganlik bilan ajralib turishi kuzatildi. Bu holat gender ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadigan an’anaviy va zamonaviy rol tasavvurlarining oilaviy munosabatlarga tayyorlikka bevosita ta’sirini ko’rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida oilaviy munosabatlarga yetarli psixologik tayyorgarlik shakllanmagan hollarda gender stereotiplarining kuchayishi, rollararo kelishmovchiliklar va nizolarning yuzaga kelish ehtimoli ortishi aniqlanib, bu holat oilaning barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkinligi asoslab berildi. Shu boisdan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida gender sezgirlikka asoslangan psixologik yondashuvlarni qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarga tayyorlikni shakllantirishda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish, oila psixologiyasi bo’yicha profilaktik va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish hamda yoshlar ongida o’zaro hurmat, mas’uliyat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish zamonaviy oilaning mustahkamligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog’inov N.A. *Oila psixologiyasi* — umumiy oilaviy psixologiya qo’llanmasi ().
2. Abdullaeva D., Yorqulov R., Atabaeva N. *Oila psixologiyasi* — psixologlar va pedagoglar uchun o’quv qo’llanma.
3. Хазапова, З.Х. (2019). Oilaviy psixologiya asoslari. Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

4. Дубровина И. В. Проблемы психологической подготовки студенческой молодежи к семейной жизни / И. В. Дубровина // Вопросы психологии. — 2015. — №4. — С. 146-151
5. Nichols, M., & Schwartz, R. Family Therapy: Concepts and Methods. 11th ed. Boston: Pearson, 2019.
6. Olson, D. H., & DeFrain, J. Marriages and Families: Intimacy, Diversity, and Strengths. New York: McGraw-Hill, 2011.
7. Braehler C, Schwannauer M. Rivojlanayotgan o'zini tiklash: o'smirlik davridagi psixozdan tiklanishda aks ettirish funktsiyasini o'rganish. Psychol Psychother. 2012 mart; 85 (1):48-67.
8. Skelton JA, Vitolins M, Pratt KJ, DeWitt LH, Eagleton SG, Brown C. Oilaviy semirishni davolashni qayta ko'rib chiqish. Clin Obes. 2023-yil dekabr; 13 (6):e12614
9. Skelton JA, Van Fossen C, Harry O, Pratt KJ. Oila dinamikasi va bolalar vaznini boshqarish: oilani oilaviy davolanishga jalb qilish. Curr Obes Rep. 2020
10. Zaider TI, Banerjee SC, Manna R, Coyle N, Pehrson C, Hammonds S, Krueger CA, Bylund CL. Oilalar bilan qiyin munosabatlarga javob berish: Statsionar onkologiya hamshiralari uchun o'quv moduli. Fam Syst Health. 2016-yil